SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Mamadalieva Marxabo Xolmamatovna

SSSVXTXQTva UMOHM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyatiga oid ma’lumotlar oz aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim - tarbiya, pedagogika, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, kasbiy kompetentlik, rivojlantirish, ijtimoiy-pedagogik,texnologiya, ta’lim turlari, pedagogik mahorat, madaniyat,kreativlik.

Annotatsiya: V state predstavlena informatsiya o sotsialno-pedagogicheskoy neobxodimosti razvitiya professionalnoy kompetentnosti pedagogov doshkolnых obrazovatelnых organizatsiy na osnove lichnostno-orientirovannogo podxoda.

Klyuchevые slova: obrazovanie i vospitanie, pedagogika, lichnostno-orientirovannыy podxod, professionalnaya kompetentnost, razvitie, sotsialno-pedagogicheskaya deyatelnost, texnologiya, vidы obrazovaniya, pedagogicheskoe masterstvo, kultura, tvorchestvo.

Annotation: The article presents information on the socio-pedagogical necessity of developing the professional competence of educators in preschool educational organizations based on a person-centered approach.

Eywords: education and upbringing, pedagogy, person-centered approach, professional competence, development, socio-pedagogical activity, technology, types of education, pedagogical mastery, culture, creativity

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarorida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi belgilangan bo‘lib, unda tarbiyachilarni tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan”[8].

Shuningdek, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonunda ta’limning asosiy tamoyillari, jumladan, shaxsga yo‘naltirilganlik, izchillik, uzluksizlik, insonparvarlik va ta’lim-tarbiya uyg‘unligi belgilangan”[1]. Shu bilan birga, komil insonni tarbiyalash g‘oyalari xalq og‘zaki ijodi, xalq pedagogikasi hamda mutafakkirlar merosida ham muhim o‘rin tutadi.

Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy tarbiya haqida: “Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir deya ta’kidlaydi”. Bu fikr tarbiya jarayonining inson hayotidagi beqiyos ahamiyatini ko‘rsatadi.

Italiyalik pedagog M. Montessori ta’lim jarayonida bola shaxsining yetakchi o‘rin tutishini alohida ta’kidlab, tarbiya jarayonida bolalarning faolligi muhimligini qayd etadi. Maktabgacha ta’lim tizimida ham bolalarning mustaqilligi, erkinligi va faolligini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

“Zamonaviy maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyachilar ijtimoiy faol, ijodiy fikrlovchi shaxsni shakllantirish, bolalarda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil va mantiqiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlashni asosiy maqsad qilib qo‘yadilar” [2]. Bu esa tarbiyachilarda axborot kompetentligini shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

O.N. Krilova “axborot kompetentligini axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, tashkil etish va uzatish qobiliyati sifatida izohlaydi”. F.S. Shlexti esa zamonaviy ta’limda faqat bilim emas, balki axborot bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasi muhim ekanligini ta’kidlaydi.

N.A. Morozova shaxs rivojining turli bosqichlarida turli kompetensiyalar shakllanishini asoslab, maktabgacha davrda shaxsiy va kommunikativ kompetensiyalar ustuvor ekanligini qayd etadi.

O.G. Smolyaninova “axborot kompetentligini axborotni izlash, qayta ishlash va bilimga aylantirishning universal usuli sifatida talqin etadi”. N.X.Nosirova esa tarbiyachilarda axborot kompetentligining texnik, metodik va kommunikativ komponentlarini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi .

Axborot kompetentligi shuningdek axborot texnologiyalarining salbiy ta’sirlarini bartaraf etish, muloqotni samarali tashkil etish va axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois, u tarbiyachining kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

R.X. Tugeshev ta’kidlaganidek, zamonaviy tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishi bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarning targ‘ibotchisi ham bo‘lishi zarur. Tarbiyachining bolalarga mehr-muhabbati, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kasbiy faoliyat samaradorligining muhim omilidir.

G. Berdialieva tadqiqotlarida tarbiyachining kasbiy kompetentligi uning shaxsiy sifatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan.

Yuqoridagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyachining kasbiy kompetentligi uning pedagogik faoliyatda yuqori natijalarga erishishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. “Tarbiyachining kasbiy kompetentliligi uning ijodiy-intellektual salohiyati, innovatsiyalarni o‘zlashtirishga intilishi hamda o‘zgaruvchan pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligi bilan belgilab, kompetentlik darajasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi”.

Tarbiyachi kasbiy kompetentligiga xos asosiy belgilar quyidagilardan iborat:

“turli yoshdagi bolalar bilan ularning individual va intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlay olish;

yosh psixologiyasi va pedagogik imkoniyatlarga tayangan holda tadqiqot faoliyatini amalga oshirish;

innovatsion g‘oyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish;

ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik qo‘llab-quvvatlashning samarali shakllaridan foydalanish”;

kasbiy faoliyatga oid tanlov va tadbirlarda faol ishtirok etish;

turli pedagogik sharoitlarda kasbiy mahoratini namoyon eta olish;

ilg‘or tajribalarni ommalashtirish.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, kasbiy kompetentlikni shakllantirish alohida bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan cheklanmay, balki integrativ bilimlar va faoliyat usullarini o‘zlashtirish, ularni doimiy boyitib borish, yangi axborotlarni izlash, qayta ishlash va amaliyotda qo‘llashni taqozo etadi.

N.A. Muslimov tadqiqotlarida kasbiy kompetentlik quyidagi faoliyatlar orqali namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi: bilimlarni muntazam boyitish, yangi axborotlarni o‘zlashtirish, davr talablarini anglash hamda ularni amaliy faoliyatda qo‘llash.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis murakkab va noaniq vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladi, ziddiyatli ma’lumotlardan samarali foydalanadi va harakat rejasini ishlab chiqa oladi.

B. Nazarova tadqiqotlarida pedagog kasbiy kompetentligining quyidagi tarkibiy komponentlari ajratilgan:

1) Maxsus (kasbiy) kompetentlik;

2) Autokompetentlik;

3) Ijtimoiy kompetentlik;

4) Ekstremal kasbiy kompetentlik.

“Tarbiyachining kasbiy kompetentliligi bolalarning mavjud imkoniyatlarini faollashtirish, ularning dunyoqarashi, mantiqiy fikrlashi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda namoyon bo‘ladi”.

Shu bois, kasbiy kompetentlikka intilgan tarbiyachi o‘z bilimlarini muntazam boyitadi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, zamon talablarini anglaydi hamda ularni amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

“Olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga tayanib, biz quyidagi mualliflik ta’rifini ishlab chiqdik: shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida MTT tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish – ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash mazmuni va tuzilmasini modernizatsiyalash, pedagogik-psixologik xususiyatlarni aniqlash hamda baholash mexanizmlarini

takomillashtirishga yo‘naltirilgan tizimli jarayondir”[2] “Ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirish bilan belgilanadi”. Bu jarayonda AKT, raqamli va innovatsion texnologiyalar hamda o‘quv-uslubiy majmualardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, G‘arb mamlakatlarida tarbiyachining kasbiy maqomi uning kompetentlik darajasi bilan belgilanadi. Demak, kompetentlik alohida bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi emas, balki integrativ bilim va faoliyat usullarining o‘zlashtirilishini ifodalaydi. N. Raxmonqulova tadqiqotlarida “ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishning nazariy-metodik asoslari hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining afzalliklari asoslab berilgan”. Ushbu yondashuvlar kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda motivatsion barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tavsiyalar asosida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida belgilangan kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan variativ yondashuvlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etishda metodik asos sifatida foydalanildi.

E. Xo‘jaqulov tadqiqotlarida esa ta’lim jarayonida sub’ektlar (MTT, ota-ona, mahalla va jamoatchilik) hamkorligining tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

R.X. Jo‘raev, S.T. Turg‘unov, N. Raxmonqulova, M. Mirsoliyeva va boshqalar ta’limni tashkil etish va modernizatsiyalashni o‘zaro ta’sir etuvchi sub’ektlar faoliyati sifatida izohlaydilar. Ularning fikricha, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish samaradorligi uning mazmuni, mohiyati va zaruriyatini anglash darajasi bilan bevosita bog‘liq.

Shu bois, “pedagog - tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiyalar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limdan samarali foydalanish ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi”. Mazkur jarayonda sub’ektlar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro aloqalarning uzviyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan fadabiyotlar:

1.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqi: 2023-yil 20-sentyabr. – Toshkent: O‘zbekiston,

2.Kolesnikova, Gulnara Grigorevna Aktivizatsiya professionalnogo tvorchestva pedagogov doshkolnых obrazovatelnых organizatsiy : dissertatsiya ... kandidata pedagogicheskix nauk : 13.00.08 Kemerovo 2018

3.Mamadaliyeva M.X. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish: dissertatsiya. – Toshkent, 2026. – 175 b.